

Qarshi DU tadqiqotchisi

D.Ro'ziyeva

Usmon Azimballadalarida inson iztiroblarini tasvirlashda buyum va jihozlardan ramz-timsol sifatida ustalik bilan foydalanadi. Shu jihatdan g'arbona ballada bilan sharqona masalni uyqashtirib yuboradi. Masalan: "Buyumlar haqida ballada", "Avtomobil haqida ballada", "Dekabr balladasi", "Yomg'ir haqida ballada", "Mardlik haqida ballada" va hokazo.

Shoir qalbi dashtdek keng, tog'dek yuksak, daryodek toshqin bo'ladi. Faqatgina shoirlar inson ruhining oniy iztiroblari yuquvonchlarini satrlar qatiga jo eta oladi. Adabiy turlarning eng nozigi lirikaning qay bir janrida qalam tebratilmasin, inson ko'nglida mavj uradigan inja tuyg'ular tarannum etiladi. Jumladan, syujetlilik bilan ajralib turadigan balladalar haqida ham shunday fikr aytish mumkin.

Usmon Azim balladalaridagi tabiat tasviri betakrorligi bilan e'tiborga molik.

"Deraza haqida ballada"sga quloq tutaylik:

Kuzakning besohib kechalarida

Izg'irinlar yelar, yomg'irlar ezar...

Dunyoning ho'l, zulmat ko'chalarida,

Tentirab kezinar yolg'iz deraza.

Oynasida o'ynar chiroqning aksi,

Qayiq surati bor pardalarida.

Tentirar deraza – xazonlar bosib,

Beparvo kuzakning zardalariga.

Tabiat oltin rangga belanib, bor go'zalligini ko'z-ko'z etsa-da, kuz faslini inson hayotining shomiga qiyoslaymiz. Tillarangning olovli nurlari zulmatga yuz tutgan xazonrez umrni yorita olmas ekan. Balladaning dastlabki misralaridanoq

tabiat lirikasining go'zal namunasini ko'rishimiz mumkin. Shu orqali insonning oniy kechinmalari tasvirlangan.

Sakkiz oynasi bor – sakkizta tuman,

G'ussadan sakkizga bo'lingan siyna –

Boradi charchagan ko'chalar bilan,

Sakkizga ajralgan jonini qiynab.

Avtolar yonidan o'tar zuvillab,

Halqoblar poyida qolar sochilib.

Boradi junjikib, borar huvillab,

Yig'lar – men bilmadim kimga achinib.

Kecha mavjlanadi – hududsiz dengiz...

(Izg'irinlar yelar, yomg'irlar ezar)...

Tunga cho'kib ketgan to'rt taraf tubsiz...

Nochor kema kabi suzar deraza.

Ballada real hayot va fantastik tasvirni uyg'unlashtirgan. Sakkiz oynasi bor deraza tasviri orqali insonning tashqi a'zolari ramzlashtirilib, badiiy obraz hosil qilingan. Deraza-odamning ko'zyoshiga belangan ko'yi tungi shahar bo'ylab izg'ishidan iborat fantastik syujet ta'sirchan peyzaj bilan boyitilgan.

Ko'p qavat binolar charaqlab turar,

Sassiz hayqirishar: “Bizlar – baxtiyor!..”

Baxtdan gangib qolgan bu cho'ng devlarga

Yolg'iz derazaning dardi ne darkor?

Deraza charchabmi yerga cho'kadi,

Tani chippa botar kuzak loyiga.

Ustidan daraxtlar xazon to'kadi...

Hamma derazalar joyi-joyida!

Deraza qaytadi poyi-piyoda,

O'tgan yo'larini tanimas ko'zi...

Sovuq bir devor bor, axir, dunyoda,

O'sha muzday devor qismatning o'zi!

Tani boshqa dard bilmas. Baxtiyor ko'p qavatli binolarga darbadar derazaning ahvoli ruhiyasi g'alat tuyuladi. Chunki ular hayotda hammasi qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilgan. Ko'nikuvchanning kuni qulay kechadi. Bizning derazamiz esa devorda serrayib turaverishdan zerikkan, qandaydir o'zga ma'volarni qo'msaydi, istaydi, izlaydi. Ammo achchiq qismat orzu qanotlarini qayirib, yana taqdir chizig'iga qaytishga majburlaydi.

Singan qanot kabi sudralib borar,

Ikki pardasi – shundoq jiqqa ho'l.

Axir, bu dunyoda bir devor bor-a,

Bedorligi kamdir, uyqulari mo'l.

Ana, xurрак otib uxlar bearmon...

Deraza termular devorga g'amgin:

– Bir kun qaytmas bo'lib ketaman, ishon!

Uyg'ongin, devorjon! Uyg'on, uyg'ongin!..

Deraza devorga kelib o'rnashar,

Dahshatda qotadi sakkizta ko'zi,

Qurib ulgurmagan darpardalardan

Qayiqalar qaygadir ketishar suzib...

Iztirob iskanjasida tun bo'yi yolg'iz o'zi shahar kezgan deraza yana eski o'rniga qaytadi. Asl qismati shu! Devor va derazani bir-biridan ayro tasavvur eta olmaganimizdek, jism va ruhni ham bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Inson ruhi (ya'ni deraza) erkinlik izlab izg'irinli ko'chalarda mungli izg'iydi, ammo taqdiri azal uning jismdan (ya'ni devordan) ajralishiga yo'l qo'ymaydi. Jism (devor) ham ruhsiz (derazasiz) mudroq. Ikkisi birga yaxlitlikni tashkil qiladi, bir butun bo'ladi. Lekin orzu qayiqalari qaylargadir suzib ketaveradi...

O'zbek she'riyatida Usmon Azimning belgili, katta o'rni bor. Shoir qalamiga mansub balladalar tahlili ham buni isbotlaydi. Usmon Azim mazkur janr imkoniyatlarini yanada kengaytirib, yangicha mavzular, yangicha ifodalar olib kirdi. G'arbona janrning sharqona namunalarini yaratdi.

Bu borada “Kuz” majmuasidagi birinchi, epigraf sifatida keltirilgan “Yomg'ir hidi” nomli xayolomuz she'rning boshlanishiga e'tibor beraylik:

Yomg'irli kechada falakka uchdim,

Shamollar yuzimga yopishdi ivib.

Yulduzlar armonli shivirga tushdi:

Yomg'irning hidi-ku, yomg'irning hidi!

Usmon Azimning sevimli obrazlaridan biri bu yomg'irdir. Ijodkor yomg'ir obrazini turli o'rinlarda turlicha o'xshatishlar bilan tasvirlaydi. Yomg'irli kecha, shamol, yulduzlar kabi ramziy ma'noga ega bo'lgan tabiat tasviridan mohirona foydalana bilgan va misra so'ngida yomg'ir haqida ajabtovur bir so'z qo'llaydi ya'ni yomg'irning hidi-ku, yomg'irning hidi! degan hazilomuz o'xshatish qiladi. Usmon Azimning she'riyatida ramziylik o'z mohiyati bilan boshqalardan ajralib turadi.

Shoirning ko'plab she'rlarida ramzlarga duch kelamiz uning quyidagi satrlariga nazar solsak mahbubaning shamolda hilpirayotgan yengini semurg'ning qanot qoqishiga qiyoslab, rangorang manzaraviy bir holat yaratganiga guvoh bo'lamiz.

Semurg'ning qanotiday

Nega hilpirar yenging?

Men ham dasht hayotimni –

Seni sog'inib keldim.

Sog'inish – kimgadir va nimagadir qattiq intilib, qo'msashdir. Dashtdagi hayotni sog'inish, yurtni sog'inishdir; u bilan lirik qahramonning taqdiri bog'langan; uning quchog'ida tug'ilib, ulg'aygan. Shuning uchun lirik qahramon dasht hayotini eslaganda, uning shamoli, o'ziga xos ko'rinishi, har bir faslning bir-biridan farqli qiyofasi, go'zal ramzlarda ifoda etadi.

Ramzlar she'rning go'zal shohona libosi bo'lgani kabi, ularning mazmunini ham shu qadar sirli va jiloli tarzda ifoda etadi. Shoirning "Yurak" deb nomlangan she'riga bir etibor qaratsak:

Ko'ksimda bir qush bor – uchadi tinmay,

Yuksak-yuksaklarda uchar – ko'rar tush...

Uchadi yarador bo'lganin bilmay,

Uchib ketayotib o'ladi bu qush.

Aslida she'ring mazmun mohiyatida yuksak-yuksaklarga uchishga qodir yarador yurak – uchqur qush ramzi timsolida keltirilgan.

Usmon Azimning ijodiga nazar tashlasak uning she'riyatida o'zgacha bir ruhiyatni sezish mumkin. Uning she'rlaridagi har bir misralarda o'ziga xos ajib sirlilik va ramziy ma'no ifoda etuvchi detallar ham she'ring mazmuniga xusun baxsh etib turadi. Shoirning serqirra ijod namunalari ijtimoiy hayotda ro'y berayotgan aksar hollarda falsafiy bir mushohadaga undaydi. Kishini o'ylantiradi, fikr-mulohaza yuritishga safarbar etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tanlangan asarlar 1-jilt Usmon Azim Toshkent: G'G'ulom nashriyoti batbaa ijodiy uyi 2016
2. Tanlangan asarlar 2-jilt Usmon Azim Toshkent: G'G'ulom nashriyoti batbaa ijodiy uyi 2016
3. Usmon Azim Saylanma "Shsrq" nashriyoti Toshkent 1995